

**DASTLABKI QABUL QILINGAN GAROV TA'MINOTINI
BOSHQA TA'MINOTGA O'ZGARTIRISH VA GAROVGA QABUL
QILINGAN MOL-MULKNI GAROVDAN CHIQARISH QUYIDAGI
TARTIBI**

1. Dastlabki qabul qilingan garov ta'minotini boshqa ta'minotga o'zgartirish va garovga qabul qilingan mol-mulkni garovdan chiqarish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish Amaliyot boshqarmasi/MBXOlar orqali Korporativ mijozlarni kreditlash boshqarmasining andarrayting bo'limi tomonidan ko'rib chiqiladi va o'z vakolati doirasida yakuniy qaror qabul qiladi yoki kollegial organ muhokamasiga olib kiradi.

2. Dastlabki garov sifatida qabul qilingan garov turini boshqa ko'char hamda ko'chmas mol-mulklarga o'zgartirish (almashtirish) ko'zda tutilgan hollarda faqatgina o'zgartirilayotgan (almashtirilayotgan) ko'char va ko'chmas mol-mulk garov turi va narxiga mos bo'lgan ko'char va ko'chmas mol-mulklar mavjud bo'lgan hollarda mutanosib ravishdagi amaliyotlarni o'tkazishga ruxsat etiladi. Istisno hollarda, qiymati yoki turi almashtirilayotgan garov predmeti parametrlariga to'liq mos kelmasa ham, darajasi almashtirilayotgan garov predmetiga qaraganda yuqori bo'lgan mol-mulkni garovga qabul qilishga ruxsat beriladi, buning uchun tegishli asoslanishi va Bankning vakolatli organi tomonidan ma'qullanishi lozim.

3. Dastlabki qabul qilingan garov boshqa ta'minot(turi)ga o'zgartirilganda (almashtirilganda) garov sifatida qabul qilingan barcha mol-mulk, shuningdek, o'zgartirish (almashtirish) uchun taklif etilayotgan mol-mulkning bozor qiymati, agar baholash to'g'risidagi mavjud hisobot olti oydan ortiq vaqt oldin tuzilgan bo'lsa, qayta baholanishi kerak. Baholash ushbu Tartibning 3-ilovasida nazarda tutilgan tartibda konsalting kompaniyasi orqali amalga oshiriladi.

4. Loyihalar bo'yicha dastlabki qabul qilingan garov ta'minotini boshqa ta'minot(turi)ga o'zgartirish quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- ariza ko'rib chiqish sanasiga mijozning va unga aloqador korxonalarning "Asia Alliance Bank" ATB tizimida muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lmagan;
- ariza ko'rib chiqilish sanasiga mijozda kartoteka № 2 qarzdorligi mavjud bo'lmaganda;
- garovga qo'yuvchilar/uchinchi shaxs kafilliklarida bankrotlik jarayonining mavjud emasligi;
- mijozning "Asia Alliance Bank" ATB tizimida mavjud kreditlari bo'yicha oxirgi 6 oy davomida qarzdorlikning muddati o'tgan kunlarining umumiy soni 60 kundan oshmagan bo'lishi;
- kreditning shartlari ilgari qayta ko'rib chiqilmagan, xususan, kreditni (asosiy qarz va foizlarni) qaytarish muddati uzaytirilmagan holatda, kredit berish shartlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari yoki farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, yig'ilish bayonlari qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qarorlariga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan loyihalar bundan mustasno;

- mijozga nisbatan kredit xizmatlari bo'yicha da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan holatlar bo'lmasligi;

5. Loyihalar bo'yicha mavjud garov ta'minoti quyidagi shartlarning barchasi bajarilganidan keyin qisman garovdan chiqarilishi (ozod qilinishi) mumkin:

- ariza ko'rib chiqish sanasiga mijozning va unga aloqador korxonalarning "Asia Alliance Bank" ATB tizimida muddati o'tgan qarzдорliklari mavjud bo'lmagan;

- ariza ko'rib chiqilish sanasiga mijozda kartoteka №2 qarzдорligi mavjud bo'lmaganda;

- garovga qo'yuvchilar/uchinchi shaxs kafilliklarida bankrotlik (tugatish, sanatsiya yoki tashqi boshqaruv) jarayonining mavjud emasligi;

-mijozga nisbatan Bank tomonidan qo'zg'atilgan sud ishining mavjud emasligi;

6. Kredit majburiyatlari bo'yicha qabul qilingan garov ta'minoti qisman garovdan chiqarilayotganida majburiyatlar ta'minoti sifatida qolayotgan butun mavjud garov ta'minotining bozor qiymati agar baholash to'g'risidagi mavjud hisobot olti oydan ortiq vaqt oldin tuzilgan bo'lsa, qayta baholanishi kerak. Baholash ushbu Tartibning 3-ilovasida nazarda tutilgan tartibda konsalting kompaniyasi orqali amalga oshiriladi;

7. Kreditning qisman so'ndirilishi munosabati bilan garov ta'minotini ta'minotdan chiqarilishi yoki taqdim etilgan garov predmeti o'zgartirilishi jarayonlarida mijoz Bank talablari darajasiga javob beruvchi likvid garov ta'minotini majburiyatlar qoldig'iga nisbatan kamida 125% (bankka aloqador shaxslar uchun 130%) miqdorida ta'minlanishi lozim.

8. Mijozlarning kredit majburiyatlari bo'yicha qabul qilingan garov ta'minotini qisman ozod etish va (yoki) ilgari qabul qilingan garovni boshqa turdagi ta'minotga o'zgartirish (almashtirish) to'g'risidagi arizalari belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi. Vakolatli organ mazkur arizalarni ko'rib chiqib, ular ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kunidan kechiktirmay ularni qanoatlantirish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilingan sanadan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida ariza beruvchiga ma'lum qilinadi.

9. Kredit majburiyatlari bo'yicha qabul qilingan garov ta'minotini qisman garovdan chiqarish va/yoki Dastlabki qabul qilingan garovni boshqa ta'minot(turi)ga o'zgartirish bo'yicha mijozlar tomonidan qabul qilingan arizalar rad etish bo'yicha qaror qabul qilinganda, bu to'g'risida asoslantirilgan holda arizachiga xabar beriladi».